

ZAMONAVIY TARJIMASHUNOSLIK VA KASBIY KOMPETENSIYLAR

Raxmanov Botir Maxmudovich

Stajor – o'qituvchi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti,

Roman – german tillari tarjimashunosligi kafedrasida

botirrahmonov67@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarjimashunoslik va tarjimon mutaxassisligiga oid bilim va malakalarning zamonaviy jamiyat talablari hamda sharoitlari moslashuvi haqida fikr yuritiladi. Global kommunikatsilarning keskin kengayishi va ma'lumotlar oqimining to'xtovsiz ravishda tezlashib borishi natijasida, bir vaqtning o'zida bir nech tillardagi ma'lumotlarni o'zaro almashuvi jarayoni ham o'ta murakkab xususiyat kashf etmoqda. Tadqiqotda mazkur sharoitda tarjimonlik kasbiga qo'yilayotgan talablar, mavjud sharoitlar hamda ushbu kasb egalarining jamiyatdagi o'rni va vazifalari tahlil qilinadi. Xulosa sifatida, zamonaviy tarjimashunoslik va tarjimonlik mutaxassisligiga oid muammolarni hal qilishda sohaga xos bo'lgan kompetensiyalar, bilim, malaka va tajribalarning o'rni va ahamiyatiga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy tarjimashunoslik, tarjima mutaxassisligi, kasbiy kompetensiyalar, tarjima bositalari, tarjima yunalishlari, amaliy tarzima ko'nikmalari, interkultural salohiyat.

Abstract: This article discusses the adaptation of knowledge and skills related to translation studies and translator specialty to the requirements and conditions of modern society. As a result of the rapid expansion of global communications and the continuous acceleration of the flow of information, the process of exchanging information in several languages at the same time is becoming very complicated. In this study, the requirements for the translation profession, existing conditions, and the role and tasks of the owners of this profession in the society are analyzed. As a conclusion, attention is paid to the role and importance of competences, knowledge, skills and experiences specific to the field in solving problems related to modern translation studies and translation specialty.

Key words: modern translation studies, translation specialization, professional competencies, translation skills, translation directions, practical skills, intercultural potential.

Аннотация: В данной статье рассматривается адаптация знаний и умений, связанных с переводоведением и специальностью переводчика, к требованиям и условиям современного общества. В результате быстрого расширения глобальных коммуникаций и постоянного ускорения потока информации процесс обмена информацией одновременно на нескольких языках сильно усложняется. В данном исследовании анализируются требования к профессии переводчика, существующие условия, а также роль и задачи

владельцев этой профессии в обществе. В заключение уделяется внимание роли и значению компетенций, знаний, навыков и опыта, специфичных для данной области, в решении проблем, связанных с современным переводоведением и переводческой специальностью.

Ключевые слова: современное переводоведение, переводческая специализация, профессиональные компетенции, переводческое мастерство, направления перевода, практические навыки, межкультурный потенциал.

Jamiyat taraqqiyotida tarjima va tarjimonlik qadim zamonlardan buyon alohida o'rin tutadi va bu soha vakillari tarixan har bir tamaddunning yuzaga kelishi hamda barqaror rivojlanishi uchun xizmat qilgan. Qadimgi Misrdagi Menneferlik fir'avn Xorenhab maqbarasidan topilgan suratlarining birida hukmdor va horijlik mehmon o'rtasida tarjimonning surati ikki marta aks ettirilgan va bu holat tarixda ham tarjimonlar o'ziga xos ijtimoiy maqomda bo'lishganidan guvohlik beradi¹. Tarjimonlar qadim-qadimdan buyon o'zaro muloqatda vositachi vazifasini bajarib kelishadi va bu vazifa bugungi kunda tobora kengayib bormoqda.

Xususan, Evropa Ittifoqi doirasida og'zaki va yozma tarjima sohasiga bog'liq bo'lgan faoliyat turlarining umumlashtirilgan tahlil ilk bor 1997 yilda avstriyalik tarjimon olimi Ingrid Kurzning "Og'zaki va yozma tarjimonlar uchun kasbiy sohalar" (Berufsfelder für Übersetzer und Dolmetscher) nomli to'plami shaklida paydo bo'ldi². Unda tarjimonning turli yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarining amaliy tajribalari va xulosalari bayon etilgan maqolalari jamlangan bo'lib, har bir amaliyotchi tarjimon o'zining kasbiga oid masalalar bilan o'rtoqlashgan. Mazkur to'planning ahamiyatli jihati shundan iboratki, unda bevosita tarjima amaliyoti bilan shug'ullanayotgan mutaxassislar bu kasbning ijobiy va salbiy jihatlari, yutyq va muammolarini ochiq-oydin bayon qilishgan. Bu esa, o'z navbatida, tarjimonlik kasbini tanlayotgan yoshlar uchun nafaqat o'ziga xos maslahat va ko'rsatma vazifasini o'taydi, balki yosh tarjimonlarni kelajakda nimalar kutayotgani haqida to'liq ma'lumotlar beradi.

Ma'lumki, asrlar davomida tarjima ko'nikmalarini egallash intuitiv va o'z ustida ishlash natijasida shakllangan. Tarixan, agar diplomatik xizmatdagi tarjimonlarni hisobga olmaganda, tarjima va tarjimonlik sohasida o'qitish o'tgan asrning 20-yillarga qadar institutsionalizatsiya qilinmagan. 1950-yillarda birinchi maxsus institutlar ta'sis etila boshlagan bo'lsa, fanning haqiqiy erkinlashishi 1970-yillarning oxirida sodir bo'ldi. 1980-yillarda boshlangan ta'lim tizimi 1990-yillarga kelib, ushbu sohaning rivojlanishida muhim bosqich sifatida e'tirof etiladi. Bunda tarjima fanlari nazariyalari va fanlararo yo'naltirilgan amaliy modellar keng tarqala boshladi. Umuman olganda, butun dunyo bo'ylab tarjima o'quv markazlari sonining tez o'sishi kuzatilmoqda, ular faqat 1970-yillardan 1990-yillargacha besh baravar ko'paydi.

¹ Ingrid Kurz. Das Dolmetscher-Relief aus dem Grab des Horenhab in Memphis. Ein Beitrag zur Geschichte des Dolmetschens im alten Ägypten. Article published In: Babel. Vol. 32:2 (1986), pp.73–77.

² Ingrid Kurz, Angela Moisl, Berufsbilder für Übersetzer und Dolmetscher: Perspektiven nach dem Studium. WUV- Univ.-Verlag, 1997, 193 S.

So'nggi yigirma yildagi o'zgarishlar nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham sezilarli o'zgarishlarga olib keldi - ayniqsa Evropa mamlakatlarida yangi o'quv dasturlari va yo'nalishlari joriy etilmoqda. Universitetlarning asosiy faoliyati va o'quv dasturlarida belgilangan maqsadlar bugungi kunda ilmiy tadqiqotga asoslangan ta'limga tayanadi.

Bu masalada Evropadagi tegishli o'quv markazlarining o'quv dasturlari o'zaro umumiy xususiyatlarga ega. Alohida bir mamlakatga xos o'qitish kontseptsiyalariga qaramay, universitetlardagi barcha tarjima kurslari professional voqelikka tayyorgarlik ko'rishda umumiy xususiyatga ega. Texnik ta'lim mazmuni mohiyatan bir xil, chunki har bir dastur tilni puchta egallash, madaniy va mavzular bo'yicha ko'nikmalar, tadqiqot ko'nikmalari, information texnikalar bilan ishlashga o'rgatish, tarjima strategiyalarini o'rganishkabilarni o'z ichiga oladi³.

Bundan tashqari, universitetlarda o'qitish va o'qish talabalarga jamiyatdagi o'rni va umumiy kompetentsiyani egallashning bir qismi sifatida o'zlari va jamiyat oldidagi mas'uliyati haqida fikr yuritishlariga imkon berishi kerak. Demokratiya, qonun ustuvorligi va farovonlik davlati uchun yuqori sifatli tarjima xizmatlarining ahamiyati tobora e'tirof etilayotgani uchun bu masala muhim ahamiyat kasb etmoqdar. Masalan, ijtimoiy soha objektlarida, ya'ni kasalxonalar, mahalliy boshqaruv idoralari kabilarda tarjimonlik xizmatlari joriy qilinmoqda. Xususan, Evropadagi markaziy sog'liqni saqlash idoralari va kasalxonalar o'z faoliyatini malakali tarjimonlik xizmatlari bilan ta'minlashga harakat qilishmoqda. Xuddi shu narsa politsiya va sud tarjimoniga ham tegishli⁴. O'sib borayotgan ijtimoiy talablar va ular bilan bog'liq ijtimoiy mas'uliyat, shuningdek, mehnat bozori talablari tarjimonlarni tayyorlashda ham o'z aksini topishi kerak.

Mutaxassislarning bilim, ko'nikma va malakalarini egallash nihoyatda muhim bo'lsa-da, bu ko'nikmalar brogan sari kamlik qilib bormoqda. Mehnat bozorida qo'llanilishi mumkin bo'lgan keng doiradagi va kerakli ijtimoiy-siyosiy ta'lim texnik va uslubiy kompetentsiyadan tashqari, o'quv jarayoniga ijtimoiy-kommunikativ va axloqiy-me'yoriy bilimlarni o'rganishni ham talab qilmoqda. Bu shuni anglatadiki, siz o'qish davomida mustaqil harakat qilishni, interaktiv muloqotda bo'lishni va muammolarni mustaqil hal qilishni o'rganishingiz zarur bo'ladi. Shuning uchun zamonaviy tarjimonlik mustaqil harakatga asoslangan faoliyat sifatida maydonga chiqmoqda. Unda texnik vositalar bilan ishlash ko'nikmalarni ongli ravishda idrok etilishi lozim, shuningdek, ijtimoiy bilimlarni ham hisobga olishi kerak bo'ladi.

Tarjimonlik kasbining ko'pchilik tomonidan qabul qilingan oddiy farqlanish yozma va og'zaki tarjimonlik hisoblanadi. Yozma tarjima yozma hujjatlar bilan ishlashni, og'zaki tarjimon esa, og'zaki nutq bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Ushbu bo'linish juda soddalashtirilganligi (masalan, sinxron tarjimonlar, yozma nutq, so'zlashuv) tarjimashunoslikda bir necha bor ta'kidlangan. Yozma tarjimonlar ham, og'zaki tarjimonlar ham doimiy ish joyiga ega bo'lishlari mumkin. Masalan, ular BMT,

³ Reiß Katharina, Vermeer Hans J. (1991). Grundlegung einer allgemeinen Translationstheorie, Tübingen: Niemeyer.

⁴ Kadrić, Mira. 2011. Dialog als Prinzip. Für eine emanzipatorische Praxis und Didaktik des Dolmetschens. Tübingen: Gunter Narr.

Yevropa Komissiyasining Tarjima bo'yicha Bosh direktorligi kabi xalqaro tashkilotlarda; Mamalakat Tashqi ishlar vazirligining til xizmati kabi milliy tashkilotlarda; maxsus tarjimada kompaniyalari, turli sohalardagi kompaniyalarning tarjima bo'limlarida yoki mustaqil ravishda erkin tarjimon sifatida ishlaydi. Doimiy ish yoki mustaqil ishning afzalliklari va kamchiliklari (vaqt, joy, xarajatlar, mijozlarni topish va h.k.) tegishli nashrlarda, ayniqsa, professional uyushmalar jurnallarida tez-tez muhokama qilinadi⁵.

Yozma va og'zaki tarjimonlarning yana bir umumiy jihati shundaki, ularning bir yoki bir necha mavzular bo'yicha ixtisoslashuvi, masalan, tibbiyot, texnika, huquq, iqtisod, siyosat. Bunday ixtisoslashuv, ma'lum sharoitlarda, faqat ixtisoslashgan sohadagi muayyan mavzuga (masalan, yadroviy texnologiya, ma'muriy huquq, xavfsizlik siyosati) tegishli bo'lishi mumkin. Mutaxassis tarjimonlar, shuningdek, ko'pincha tegishli mavzu bo'yicha tarjimaga tegishli bo'lgan ayrim turdagi matnlar bilan ishlaydi⁶ (masalan, tibbiy, amaliy tadqiqotlar, huquqiy hijjatlar tarjimasi). Xalqaro tashkilotlarda ishlaydigan tarjimonlar ko'pincha tor mutaxassislik ular uchun etarli emasligini ta'kidlaydilar, chunki kundalik ish (masalan, komissiya yig'ilishlari, ekspert yig'ilishlari) rang-barang va qisqa muddatli mavzuli tayyorgarlikni talab qiladi. Hatto badiiy tarjimada ham mavzu shu qadar xilma-xil bo'lishi mumkinki, ularni idrok etish ko'p vaqt va harakat talab etadi.

Demak, tarjimonlikka o'qitish vazifasini bu sohadagi umumiy kompetensiyani o'rgatish, deb qaraydigan bo'lsak, texnik, uslubiy, ijtimoiy va individual kompetensiyalarning o'zaro bog'langan tarkibiy qismi bu yo'nalishning asosiy bo'g'inlari hisoblanadi. Ijtimoiy kompetensiya, xususan, darslarda ijtimoiy munosabat va harakat shakllarini tanlash orqali jamoada ishlash va hamkorlik qilish qobiliyatini shakllantirish mumkin.

Zamonaviv tarjima va tarjimonlarga qo'yadigan bunday talablar, pirovardida bo'lajak tarjimonlarning nafaqat tarjimaning o'zi uchun zarur bo'lgan bilim va malakalarni egallashga, balki ulardan o'z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kerakli bo'lgan o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirishni ham nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ingrid Kurz. Das Dolmetscher-Relief aus dem Grab des Haremhab in Memphis. Ein Beitrag zur Geschichte des Dolmetschens im alten Ägypten. Article published In: Babel. Vol. 32:2 (1986), pp.73–77.
2. Ingrid Kurz, Angela Moisl, Berufsbilder für Übersetzer und Dolmetscher: Perspektiven nach dem Studium. WUV-Univ.-Verlag, 1997, 193 S.
3. Reiß Katharina, Vermeer Hans J. (1991). Grundlegung einer allgemeinen Translationstheorie, Tübingen: Niemeyer.
4. Kadrić, Mira. 2011. Dialog als Prinzip. Für eine emanzipatorische Praxis und Didaktik des Dolmetschens. Tübingen: Gunter Narr.

⁵ Holz-Mänttari, Justa. 1984. Translatorisches Handeln. Theorie und Methode. Helsinki: Suomalainen Tiedeakatemia..

⁶ Riski Hanna (1998). Translatorische Kompetenz. Kognitive Grundlagen des Übersetzens als Expertentätigkeit. Tübingen: Stauffenburg.

5. Holz-Mänttari, Justa. 1984. Translatorisches Handeln. Theorie und Methode. Helsinki: Suomalainen Tiedeakatemia..

6. Riski Hanna (1998). Translatorische Kompetenz. Kognitive Grundlagen des Übersetzens als Expertentätigkeit. Tübingen: Stauffenburg.